

DARS JARAYONIDA MULTIMEDIA VOSITALARIDAN FOYDALANISH ORQALI BILIMLARNI O'ZLASHTIRISH SAMAR ADORLIGINI OSHIRISH USULLARI

Murodullayeva Rayxona Abduraxmon qizi

(Farg'ona davlat texnika universiteti talabasi)

Annotatsiya: Mazkur maqolada ta'lim jarayonida multimedia vositalaridan foydalanishning o'quvchilar bilimini o'zlashtirishdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Raqamli texnologiyalarning ta'limga kirib kelishi natijasida, darslarni interaktiv, samarali va qiziqarli tarzda tashkil etish zaruriyati ortib bormoqda. Maqolada multimedia vositalarining afzalliklari, xususan, o'quvchining faolligi, qiziqishi va mustaqil izlanishlariga ijobiy ta'siri misollar orqali ochib beriladi. Shuningdek, multimedia vositalarining ta'limni differensiallashtirishdagi roli ham yoritiladi. Muallif tomonidan ta'lim sifati va o'quv samaradorligini oshirishda zamonaviy yondashuvlarning dolzarbligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: multimedia vositalari, raqamli texnologiyalar, ta'lim jarayoni, interaktiv dars, bilim samaradorligi, o'quvchilar faolligi, vizual o'rganish, ta'lim sifati

Kirish

Bugungi kunda ta'lim tizimida ro'y berayotgan o'zgarishlar va zamonaviy texnologiyalar taraqqiyoti dars jarayonlarini ham zamonaviylashuvga undamoqda. An'anaviy o'qitish uslublarining o'rnini asta-sekin multimedia vositalari orqali boyitilgan, interaktiv va o'quvchini faol jalb etuvchi metodlar egallamoqda. Ayniqsa, bilimlarni o'zlashtirish samaradorligini oshirishda multimedia vositalarining tutgan o'rne nihoyatda muhim. Zero, ko'rish, eshitish va harakat orqali o'rganilgan bilimlar uzoq muddatli xotirada mustahkam joylashadi. Bugungi kunda ta'lim sohasida yuz

berayotgan jadal o'zgarishlar, raqamli texnologiyalarning kirib kelishi, o'quv jarayonini interaktiv, qiziqarli va samarali tashkil etishga bo'lgan ehtiyojni yanada oshirmoqda. Ayniqsa, yosh avlod bilim olishga bo'lgan munosabati o'zgargan bir davrda, o'qituvchilar tomonidan multimedia vositalaridan foydalanish tobora dolzarb bo'lib bormoqda.



Multimedia vositalari – bu matn, rasm, grafik, audio, video, animatsiya va boshqa turdagi ma'lumotlarning birgalikda qo'llanilishidir. Bu vositalar o'quvchiga mavzuni tushunishda ko'maklashadi, uni faollikka undaydi, qiziqishini uyg'otadi va eng asosiysi — bilimni chuqur o'zlashtirishiga sabab bo'ladi. Misol uchun, biologiya fanida odam organizmi tuzilishini oddiy matndan o'qish o'rniga, video animatsiya orqali tushunish o'quvchiga ancha oson kechadi. Bu esa dars mazmunini ongli ravishda qabul qilish va eslab qolishni kuchaytiradi. Shuningdek, darsda multimedia vositalaridan foydalanish o'quvchilarni mustaqil izlanishga undaydi. O'quvchi o'zi mustaqil ravishda video darslarni ko'rish, interaktiv testlarni yechish, animatsiyali tajribalarni tahlil qilish orqali o'rganish jarayonini davom ettiradi. Bu esa nafaqat bilimlarni mustahkamlaydi, balki o'quvchining shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi. Multimedia vositalarining yana bir muhim jihati — ta'limni differensiallashtirish imkoniyatidir. Har bir

o'quvchining idrok qilish, tushunish va yodda saqlash qobiliyati turlichadir. Kimdir vizual ma'lumotlarni yaxshi eslab qoladi, boshqasi esa audio orqali tezroq o'zlashtiradi. Multimedia bu jihatlarni hisobga olgan holda har xil formatda bilim berish imkonini yaratadi.

Ko'p yillik amaliy tajriba shuni ko'rsatadiki, multimedia vositalaridan foydalangan holda tashkil etilgan darslarda o'quvchilarning faolligi oshadi, bilim darajasi yuqorilaydi va fanlarga bo'lgan qiziqish kuchayadi. Bu esa bevosita ta'lim sifatining oshishiga olib keladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy dars jarayoni multimedia vositalarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. O'qituvchi bu vositalardan oqilona va metodik asosda foydalansa, dars samaradorligi sezilarli darajada ortadi. Har bir pedagog zamon bilan hamnafas bo'lib, yangi texnologiyalarni o'z faoliyatida tatbiq etishga intilishi lozim. Chunki hozirgi avlodning bilim olish ehtiyoji va qiziqishi shunday zamonaviy yondashuvlarni talab qilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Axmedova, G. (2022). "Multimedia vositalaridan samarali foydalanish usullari", *Ta'lim va Innovatsiya* jurnali, №4(28), 56–60-betlar.
2. Murodullayeva, R.A., Inomjonov, A.E. (2023). *Dasturiy ta'minot vositalari va ularning telekommunikatsiya tarmoqlarida qo'llanilishi*. Interonconf.org. <https://interonconf.org/index.php/rus/article/download/1080/999/985>
3. To'raqulova, M. (2021). *Zamonaviy pedagogik texnologiyalar*. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.
4. Shamamatova, S.J., Murodullayeva, R.A., Sobirova, K.A. (2024). *Axborot xavfsizligi texnikasi va IT sohasida sun'iy intellektning o'rni*. <https://kompy.info/mejdunarodnaya-nauchno-tehnicheskaya-konferenciya-prakticheskoye.html?page=273>

5. Murodullayeva, R. A. (2024). *AutoPlay Media Studio yordamida interaktiv elektron darsliklarni yaratish va ta'lim jarayonida qo'llash*. Toshkent: Ta'lim va texnologiya.
6. Murodullayeva, R.A., Ro'zaliyev, M.X., Shamamatova, S.J. (2024). *Ta'lim sohasida onlayn konferensiya va vebinarlarni tashkil etish*. TADQIQOTLAR.UZ, 37(5), 168–171. <https://tadqiqotlar.uz/new/article/view/2977>
7. Murodullayeva R.A. (2024). *Raqamli transformatsiya va sun'iy intellekt: ijtimoiy sohalarda innovatsiyalar*. "Ilm va taraqqiyot yo'lida" ilmiy jurnali, №3, 28–34.